



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

MAKTABGACHA YOSHDAGI DUDUQLANUVCHI BOLALARDA NUTQIY NAFASNING AHAMIYATI

Shokirova Shahnoza Dilmurodovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti, professor

Ibrohimjonova Feruzabegim Erkin qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti, magistrant

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalarda nutqiy nafasning shakllanish xususiyatlari, uning nutq jarayonidagi fiziologik va psixolingvistik ahamiyati hamda duduqlanishning nevroitik va nevrozsimon shakllarida kuzatiladigan buzilish mexanizmlari tahlil qilinadi. Nutqiy nafasning ontogenez jarayonida bosqichma-bosqich rivojlanishi, diafragma, fonatsiya va artikulyatsiya faoliyatining o'zaro uyg'unligi hamda bog'langan nutqni shakllantirishdagi o'rni ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, duduqlanuvchi bolalarda nafas va fonatsiya koordinatsiyasining buzilishi, qo'shimcha nafas olish, nafas tutilishi, paradoksal nafas harakatlari va nutqning maromiy buzilishlari kabi holatlar tavsiflangan. Maqolada duduqlanishni korreksiya qilishda nutqiy nafasni rivojlantirishning ahamiyati, logopedik mashqlar va relaksatsion usullarning samaradorligi, jumladan A.N. Strelnikovaning paradoksal nafas mashqlari metodikasining imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, nutqiy nafasni maqsadli rivojlantirish duduqlanuvchi bolalarda nutqning ravonligi, ritmi va kommunikativ faoliyatini yaxshilashda muhim omil hisoblanadi. Kompleks korreksion-pedagogik yondashuv asosida olib borilgan ishlar bolalarning emotsional holatini barqarorlashtirish, nutqiy faoliyatini faollashtirish hamda ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda samarali natijalar beradi.

Kalit so'zlar: duduqlanish, nutqiy nafas, fonatsiya, artikulyatsiya, nevroitik duduqlanish, nevrozsimon duduqlanish, korreksion-pedagogik ish, ontogenez, logopediya, paradoksal nafas mashqlari.

ЗНАЧЕНИЕ РЕЧЕВОГО ДЫХАНИЯ У ЗАИКАЮЩИХСЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Шокирова Шахноза Дилмуродовна

Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низами, профессор

Иброхимжонова Ферузабегим Эркин кизи

Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низами, магистрантка

Аннотация

В данной статье анализируются особенности формирования речевого дыхания у детей дошкольного возраста с заиканием, его физиологическое и психолингвистическое значение в процессе речи, а также механизмы его нарушения, наблюдаемые при невротических и невротических формах заикания. На основе научных источников рассматриваются постепенное развитие речевого дыхания в процессе онтогенеза, взаимная гармония диафрагмальной, фонационной и артикуляционной деятельности, а также его роль в формировании связной речи. Описываются также такие состояния, как нарушение координации дыхания и фонации у детей с заиканием, дополнительное дыхание, задержка дыхания, парадоксальные дыхательные движения и ритмические расстройства речи. В статье рассматривается важность развития речевого дыхания в коррекции заикания, эффективность логопедических упражнений и методов релаксации, включая возможности методики парадоксальных дыхательных упражнений А.Н. Стрельниковой. Результаты исследования показывают, что целенаправленное развитие речевого дыхания является важным фактором улучшения беглости, ритма и коммуникативной активности речи у детей с заиканием. Работа, проводимая на основе комплексного коррекционно-педагогического подхода, обеспечивает эффективные результаты в стабилизации эмоционального состояния детей, активизации их речевой деятельности и обеспечении их социальной адаптации.

Ключевые слова: заикание, речевое дыхание, фонация, артикуляция, невротическое заикание, неврозоподобное заикание, коррекционно-педагогическая работа, онтогенез, логопедия, парадоксальные дыхательные упражнения.

THE IMPORTANCE OF SPEECH BREATHING IN PRESCHOOL CHILDREN WHO STUTTER

Shokirova Shahnoza Dilmurodovna

Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan, Professor

Ibrohimjonova Feruzabegim Erkin qizi

Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan, Master's student

Abstract

This article analyzes the features of the formation of speech breathing in preschool stuttering children, its physiological and psycholinguistic significance in the speech process, and the mechanisms of its violation observed in neurotic and neurotic forms of stuttering. The gradual development of speech breathing in the process of ontogenesis, the mutual harmony of the diaphragm, phonation and articulation activities, and its role in the formation of connected speech are covered on the basis of scientific sources. Also, such conditions as impaired coordination of breathing and phonation in stuttering children, additional breathing, breath holding, paradoxical respiratory movements, and rhythmic disorders of speech are described. The article considers the importance of developing speech breathing in the correction of stuttering, the effectiveness of speech therapy exercises and relaxation methods, including the possibilities of A.N. Strelnikova's paradoxical breathing exercises methodology. The results of the study show that the targeted development of speech breathing is an important factor in improving the fluency, rhythm, and communicative activity of speech in stuttering children. Work carried out on the basis of a comprehensive correctional and pedagogical approach provides effective results in stabilizing the emotional state of children, activating their speech activity, and ensuring their social adaptation. **Keywords:** stuttering, speech breathing, phonation, articulation, neurotic stuttering, neurosis-like stuttering, corrective pedagogical work, ontogenesis, speech therapy, paradoxical breathing exercises.

Nutq jarayonida nafas a'zolari faqat gaz almashinuvi bilan cheklanmay, balki ovoz hosil qilish funksiyasini ham bajaradi; shu sababli nutqiy nafas oddiy fiziologik nafasdan o'ziga xos jihatlari bilan farqlanadi. Nutq boshlanishidan oldin chuqurroq va tezroq nafas olinadi, keyin esa havo oqimi boylamosti bosimini saqlagan holda ratsional taqsimlanib, nafas chiqarish davomiyligi intonatsion va mantiqiy jihatdan tugallangan nutq bo'lagini ifodalashga yetadigan darajada uzayadi. Nutqiy rivojlanish davomida diafragma va nafas harakatlarining maxsus "nutqiy" mexanizmi shakllanadi: diafragma nozik differensial harakatlar orqali har bir tovushni talaffuz qilish jarayonida tebranib, artikulyatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlaydi va mushaklar tonusidagi to'liqsimon o'zgarishlar tovush hosil qilish energiyasini boshqarish hamda nutqni bo'g'inlarga ajratishda muhim rol o'ynaydi. Markaziy mexanizmlar bu jarayonni aniq nazorat qilib, nafas chiqarish paytidagi harakatlarni tartibga soladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, nutqiy nafas nutqning mazmuni, intonatsiyasi va tuzilmasiga bog'liq holda tashkil etiladi: nafas olish odatda jumla yoki mazmuniy guruhlar oralig'ida yuz beradi, nutq esa esa turli balandlik, tezlik va urg'ular bilan ijro etilishi mumkin. Shu bilan birga, nutqning prosodik va bo'g'in tuzilmasi nafasni boshqarishda yetakchi ahamiyat kasb etadi, nafas olish va chiqarish jarayonlari lingvistik pauzalar bilan uyg'unlashadi hamda nutqning mazmuniy birliklarga ajratilishiga xizmat qiladi. Natijada nutqiy nafas shartli reflektor xususiyatga ega bo'lib, u nafaqat artikulyatsiya, balki nutqni ichki rejalashtirish va ijro etishning sinxron mexanizmlarida ham faol ishtirok etadi.

Adabiyotlar tahlili. Duduqlanish va nutqiy nafas muammosi logopediya, nevropsixologiya hamda maxsus pedagogika sohalarida uzoq yillardan buyon o'rganib kelinayotgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Tadqiqotchilar tomonidan nutqiy nafasning fiziologik asoslari, uning ontogenezdagi rivojlanish bosqichlari hamda duduqlanish mexanizmlaridagi o'rni turli ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilingan. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy nafasning shakllanishi va uning nutq ravonligiga ta'siri masalasi alohida ahamiyat kasb etadi.

L.S. Vigotskiy nutq va tafakkur o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni tahlil qilib, nutq jarayoni nafaqat fiziologik, balki murakkab psixik faoliyat mahsuli ekanligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, nutqning ichki rejalashtirilishi va tashqi ifodasi o'rtasidagi uyg'unlik buzilganda nutq maromi va tempi izdan chiqadi [2, 45-b.]. Bu qarashlar duduqlanish jarayonida kuzatiladigan nafas va artikulyatsiya koordinatsiyasining buzilishlarini tushuntirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, Vigotskiy bolalar nutqining rivojlanishi bosqichma-bosqich kechishini qayd etib, maktabgacha yosh davrida bog'langan nutq va nutqiy nafas birgalikda takomillashishini ko'rsatadi [2, 58-b.]. Duduqlanishni kompleks korreksiya qilish masalalari N.A. Vlasova va Ye.F. Rau tadqiqotlarida keng yoritilgan. Mualliflar logopedik ishlarni bolaning psixofiziologik holati bilan bog'liq holda tashkil etish zarurligini asoslaydi hamda nutqiy nafasni

shakllantirishni korreksion ishlarning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rsatadi [3, 21-b.]. Ularning fikricha, duduqlanuvchi bolalarda nafas chiqarishning qisqaligi va nutq davomida havoni noto'g'ri taqsimlash holatlari eng ko'p uchraydigan kamchiliklardan biridir [3, 34-b.]. Shu sababli mualliflar relaksatsiya, ritmik nutq va maxsus nafas mashqlaridan foydalanishni tavsiya etganlar. V.I. Seliverstov duduqlanishni nevroitik va nevrozsimon shakllarga ajratib o'rganar ekan, har ikkala holatda nutqiy nafasning buzilishi turlicha namoyon bo'lishini qayd etadi. Olim nevroitik shaklda emotsional zo'riqish asosiy omil bo'lsa, nevrozsimon shaklda markaziy nerv tizimidagi funksional yetishmovchiliklar yetakchi rol o'ynashini ta'kidlaydi [1, 52-b.]. Tadqiqotlarda duduqlanuvchi bolalarda nafas olishning yuzakligi, diafragma faoliyatining yetarli shakllanmaganligi va fonatsion nafasning beqarorligi aniqlangan [1, 67-b.]. Seliverstov logopedik mashg'ulotlarda bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish, nutqiy nafasni bosqichma-bosqich rivojlantirish hamda psixoterapevtik ta'sirni uyg'unlashtirish zarurligini alohida ko'rsatadi [1, 83-b.]. R.Ye. Levina maktabi tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda duduqlanish faqat talaffuz buzilishi emas, balki butun nutq faoliyatining murakkab buzilishi sifatida talqin qilinadi. Muallif nutqiy nafasning shakllanishi grammatik tizim, fonematik idrok va bog'langan nutq rivoji bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatib beradi [4, 39-b.]. Ayniqsa, nevrozsimon duduqlanishda lug'at boyligining cheklanganligi va gaplarni mantiqiy bog'lashdagi qiyinchiliklar nafasning noto'g'ri taqsimlanishiga olib kelishi qayd etilgan [4, 47-b.]. Levina nutqiy faoliyatni rivojlantirish jarayonida nafas, ovoz va artikulyatsiya koordinatsiyasini birgalikda shakllantirish muhimligini asoslaydi. Nutqiy nafasning rivojlanish xususiyatlari V.T. Filimonova tomonidan chuqur tadqiq etilgan. Tadqiqotchi nutq nuqsoniga ega bolalarda fonatsion nafasning yetarli darajada shakllanmaganligini eksperimental asosda isbotlagan. Xususan, duduqlanuvchi bolalar qisqa gaplarni talaffuz qilishda ham qo'shimcha nafas olishga ehtiyoj sezishi, ayrim hollarda esa nafas olish fazasida gapirish holatlari kuzatilishi aniqlangan [5, 25-b.]. Filimonova bu holatlarni nafas va fonatsiya koordinatsiyasining buzilishi bilan izohlaydi hamda nutqiy nafasni rivojlantirish uchun maxsus mashqlar tizimini ishlab chiqadi [5, 41-b.]. Olimning fikricha, nutqiy nafasning to'liq shakllanishi bolaning bog'langan nutqni ravon va mantiqiy ifodalashida muhim omil hisoblanadi [5, 56-b.]. Ilmiy manbalarda A.N. Strelnikovaning paradoksal nafas mashqlari ham alohida e'tirof etiladi. Ushbu metodikada asosiy urg'u faol va qisqa nafas olishga qaratilib, nafas chiqarish passiv tarzda amalga oshiriladi. Tadqiqotchilar ushbu mashqlar nafas mushaklarini faollashtirish, diafragma harakatlarini kuchaytirish hamda ovoz apparati faoliyatini barqarorlashtirishga yordam berishini qayd etadilar. Ayrim ilmiy ishlarda ushbu metodika duduqlanuvchi bolalarda nutq maromini yaxshilashi va emotsional zo'riqishni kamaytirishi ta'kidlangan bo'lsa-da, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun metodik tavsiyalarning yetarli emasligi ham ko'rsatib o'tiladi. Tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, duduqlanishda nutqiy nafasning buzilishi markaziy o'rin tutadi va u nafas, fonatsiya hamda artikulyatsiya tizimlarining nomuvofiqligi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois duduqlanuvchi bolalar bilan olib boriladigan korreksion-logopedik ishlar jarayonida nutqiy nafasni rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlarni tizimli ravishda qo'llash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalarda nutqiy nafasning rivojlanish xususiyatlarini o'rganish hamda uning nutq ravonligiga ta'sirini aniqlash maqsadida kompleks yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy, psixologik-pedagogik va logopedik metodlar uyg'unlashtirildi. Nazariy tahlil metodlari orqali duduqlanish, nutqiy nafas, fonatsiya va artikulyatsiya masalalariga oid ilmiy manbalar o'rganildi hamda nevroitik va nevrozsimon duduqlanish shakllarining o'ziga xos jihatlari tahlil qilindi. Empirik bosqichda maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalarning nutqiy nafas holati kuzatildi, ularning nafas olish va chiqarish davomiyligi, nutq jarayonidagi qo'shimcha nafas olish holatlari, nafas va fonatsiya koordinatsiyasi logopedik kuzatuv asosida baholandi. Shuningdek, bolalarning bog'langan nutqi, gapni bir nafasda talaffuz qilish imkoniyati va nutq maromining barqarorligi maxsus logopedik topshiriqlar yordamida tekshirildi. Tadqiqot davomida nafas mashqlari, relaksatsion usullar va A.N. Strelnikovaning paradoksal nafas mashqlari elementlaridan foydalanildi. Olingan natijalar qiyosiy tahlil asosida umumlashtirilib, nutqiy nafasni rivojlantirishning korreksion ahamiyati yoritildi.

Natija va muhokama

Nutqiy nafas og'zaki nutq jarayonida fikrlash tempi bilan uyg'un holda kechib, nutqni ichki rejalashtirish sohasi bilan chambarchas bog'langan va uning tashqi fiziologik ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Bolalarda nutqiy nafas rivojlanishi nutq taraqqiyoti bilan parallel tarzda shakllanadi: 3–6 oylikdan boshlab nafas tizimi ovoz reaksiyalariga moslasha boshlaydi va fonatsion-nafas mexanizmlarining dastlabki koordinatsiyasi yuzaga keladi. Maktabgacha yoshda bog'langan nutq va nutqiy nafas birgalikda

rivojlanib, 3 yoshga kelib bola nafas chiqarish jarayonida 1–2 bo‘g‘inli sodda so‘zlarni talaffuz qila oladi, biroq bu davrda nutqning notekisligi, qo‘shimcha nafas olish va nafas tutilishi kabi holatlar artikulyatsiya va nafas harakatlari o‘rtasidagi muvozanat yetarli emasligini ko‘rsatadi. 6 yoshda bolalar 3–4 so‘zli sodda gaplarni bir nafasda ayta boshlaydi, ammo nutq murakkablashganda nafas jarayonida uzilishlar yuzaga keladi. 10 yoshga kelib esa nutqiy nafas to‘liq shakllanib, jumlaning bir nafas chiqarishida ifodalash va sintagmatik tuzilishga mos ravishda boshqarish imkoniyati paydo bo‘ladi.

V.T. Filimonova maktabgacha yoshdagi duduqlanish, NTR va FFNRga ega bolalarda nutqiy nafasning shakllanganlik darajasini sog‘lom tengdoshlari bilan qiyoslab o‘rganib, NTRga ega bolalar nafas chiqarish jarayonida asosan 1–2 bo‘g‘inli sodda so‘zlarni talaffuz qila olishini, jumlar esa ko‘pincha qo‘shimcha nafas olish tufayli uzilib qolishini aniqlagan, bu esa nutqiy nafasning yetarli rivojlanmaganligini ko‘rsatadi. Duduqlanishga ega bolalarda hatto qisqa gaplarni talaffuz qilishda ham tez-tez qo‘shimcha nafas olish yoki nafas olish paytida gapirish holatlari kuzatilib, bu nutqiy nafas va ovoz hosil qilish tizimlari o‘rtasidagi koordinatsiyani boshqaruvchi mexanizmlarning buzilganidan dalolat beradi. Umuman olganda, nutqiy patologiyaga ega bolalarda nafaqat verbal birliklarni o‘zlashtirish, balki nutqning grammatik tuzilmasi, intonatsiyasi va ayniqsa nutqiy nafasning rivojlanishi ham izdan chiqadi, bu esa ayniqsa duduqlanish holatlarida yanada yaqqol namoyon bo‘ladi.

Duduqlanish keng tarqalgan va uzoq davom etuvchi nutq nuqsoni bo‘lib, nutq apparati mushaklarining tortishishi natijasida nutq tempi, ritmi va maromining buzilishi bilan namoyon bo‘ladi hamda asosan nutqning kommunikativ funksiyasidagi izdan chiqish bilan bog‘liq holda muloqot jarayonida yuzaga keladi. U ko‘pincha nutqning jadal rivojlanish davri bo‘lgan 2–6 yosh oralig‘ida paydo bo‘lib, ayrim hollarda organik yoki ruhiy-asab kasalliklari fonida ikkilamchi shaklda ham namoyon bo‘lishi mumkin. Duduqlanish etiologiyasiga yagona yondashuv mavjud bo‘lmasa-da, uning yuzaga kelishida yosh, nerv tizimi holati, nutqiy ontogenez xususiyatlari, genetik omillar va ruhiy jarohatlar muhim rol o‘ynashi tan olinadi. Klinik jihatdan u nevroitik va nevrozsimon shakllarga ajratiladi, bunda duduqlanuvchi bolalar nutqiy rivojlanish darajasi bo‘yicha bir xil emas: ayrimlarida nutq rivoji yuqori, boshqalarida esa sezilarli darajada past bo‘lishi mumkin, biroq ularning barchasida fikrni ifodalash, so‘z tanlash va ortiqcha birliklardan foydalanish bilan bog‘liq qiyinchiliklar kuzatiladi. Nevrotik shaklda bolalar leksik va grammatik vositalardan yetarli foydalana olsa-da, nutqdan vaziyatga mos foydalanishda nomuvofiqlik va emotsional fon ta‘sirini seziladi; nevrozsimon shaklda esa bog‘langan nutqni rejalashtirish va ifodalash jarayoni murakkablashib, lug‘at zaxirasi cheklanganligi, gap tuzish va ularni bog‘lashdagi kamchiliklar, shuningdek fonematik idrok va talaffuz buzilishlari kuzatiladi, bu esa ayrim hollarda nutqning to‘liq rivojlanmaganligi bilan ham uyg‘unlashadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, duduqlanishning nevrozsimon shakliga ega bolalarda so‘z topishdagi qiyinchiliklar leksik zaxiraning yetishmasligi, monologik nutq buzilishlari esa til ko‘nikmalarining rivojlanmaganligi bilan bog‘liq bo‘lib, turli klinik shakllarda korreksion-pedagogik ishlar ham differensial yondashuvni talab etadi: nevroitik shaklda asosan emotsional holatni boshqarishga urg‘u berilsa, nevrozsimon shaklda diqqat, xotira va boshqa psixik jarayonlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan uzoq muddatli ta‘sir zarur bo‘ladi. Duduqlanuvchi bolalarda nutqiy nafasning buzilishi muhim o‘rin tutib, u nafas tutilishi, diafragma va ko‘krak mushaklarining tortishishi, nafas hajmining yetarli emasligi, ekspiratsiyaning qisqaligi hamda nafas va fonatsiya o‘rtasidagi koordinatsiyaning shakllanmaganligi bilan namoyon bo‘ladi; bundan tashqari, nonutqiy nafas ham yuzaki, noturg‘un va emotsional ta‘silarga sezgir bo‘ladi. Tadqiqotlar nutqiy nafas buzilishi nafaqat bolalarda, balki kattalarda ham saqlanib qolishini, hatto nutq tortishusiz kechayotgan vaziyatlarda ham kuzatilishini tasdiqlaydi. Nevrotik shaklda ayrim hollarda oddiy so‘zlarni talaffuz qilishda koordinatsiya nisbatan saqlangan bo‘lsa-da, nevrozsimon shaklda artikulyatsiya va fonatsiya o‘rtasidagi muvofiqlik sezilarli darajada buziladi, jumla darajasida esa har ikkala shaklda ham nutqiy nafas izdan chiqadi. Duduqlanuvchilarda nutqdan oldin yetarli nafas olinmasligi, paradoksal nafas harakatlari, so‘zlarni nafas olish fazasida talaffuz qilish kabi holatlar nutqning uzluksiz va mazmuniy yaxlitligini buzadi, bu esa ko‘pincha havo yetishmasligidan emas, balki uni noto‘g‘ri taqsimlash bilan bog‘liqdir. Shuningdek, nutqqa tayyorgarlik bosqichidayoq diafragmada patologik reaksiyalar yuzaga kelishi aniqlangan bo‘lib, bu nutq mexanizmlarining buzilishida muhim omil hisoblanadi. Umuman olganda, nutqiy nafas me‘yoriy rivojlanishda tabiiy shakllansa, duduqlanishda u to‘liq tiklanmasligi mumkin; shu sababli rehabilitatsiyada logopedik, psixoterapevtik va klinik yo‘nalishlarni birlashtirgan kompleks yondashuv, ya‘ni organizmni umumiy sog‘lomlashtirish, motorika va nafas-ovoz koordinatsiyasini rivojlantirish, emotsional holatni boshqarish va ijtimoiy moslashuvni ta‘minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlarning dastlabki kompleks tizimlaridan biri N.A. Vlasova va Y.F. Rau tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, unda rehabilitatsiyaning kompleks metod tamoyillari asoslab berilgan va u hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab qolgan. Keyinchalik V.I. Seliverstov tomonidan taklif etilgan yondashuvda individual korreksion ta'sirga, bolaning o'z nutqi va xulqi ustida ongli ishlashiga hamda logopedik mashg'ulotlarni bolaning mavjud nutqiy imkoniyatlariga tayangan holda tashkil etishga alohida e'tibor qaratiladi. R.Ye. Levina maktabi esa ta'lim-tarbiya jarayonini bog'langan nutqni rivojlantirish va psixik jarayonlarni qayta shakllantirish bilan uyg'unlashtirgan yaxlit tizimni ishlab chiqdi. I.G. Vigodskiy, Ye.L. Pellingner va L.P. Uspenskiy tomonidan yaratilgan maxsus mashqlar va o'yinlar tizimi relaksatsiya, sukut rejimi, nutqiy nafasni shakllantirish, qisqa va yoyiq gaplardan foydalanish hamda erkin muloqotni rivojlantirishga xizmat qiladi. L.M. Krapivina esa ayniqsa 2–4 yoshdagi bolalar bilan ishlashda umumiy, mayda va artikulyatsion motorika, fonatsion nafas, intonatsiya, lug'at boyligi va grammatik tuzilmani rivojlantirishga qaratilgan differensial yondashuv zarurligini ta'kidlaydi. Umuman olganda, nutqiy nafasni rivojlantirish duduqlanuvchilar bilan olib boriladigan kompleks korreksion ishlarning markaziy yo'nalishlaridan biri bo'lib, u nutqning maromli va barqaror kechishini ta'minlaydi, shuningdek nafas mashqlari psixik va somatik holatga ijobiy, relaksatsion ta'sir ko'rsatadi; shu bois ular XIX asr oxiridan boshlab barcha davolovchi va pedagogik metodikalarda muhim o'rin egallab kelmoqda.

Duduqlanishning nevroitik va nevrozsimon shakllarida nutqiy nafasni rivojlantirish ko'nikmalari turli tezlikda shakllanadi: nevroitik shaklda nafas va fonatsiya o'rtasidagi koordinatsiya nisbatan tez tiklansa, nevrozsimon shaklda bu jarayon ancha murakkab va sekin kechadi. Shu bilan birga, har ikkala holatda ham nutqiy nafasni an'anaviy mashqlar yordamida shakllantirish uzoq davom etuvchi va barqaror natija bermaydigan jarayon bo'lib, bolalar o'zlashtirilgan nafas ko'nikmalarini real nutq jarayonida qo'llashda qiynaladilar. Amaldagi metodikalarning aksariyati asosan nafas chiqarishga qaratilgan bo'lib, nafas olishning tezligi va chuqurligini rivojlantirish yetarli darajada hisobga olinmaydi, bu esa nafas tizimini to'liq shakllantirishga to'sqinlik qiladi. Shu nuqtai nazardan A.N. Strelnikovanning paradoksal nafas mashqi alohida e'tiborga loyiq bo'lib, unda an'anaviy yondashuvlardan farqli ravishda asosiy urg'u faol faza hisoblangan nafas olishga beriladi: burun orqali qisqa, keskin va shovqinli nafas olinadi, nafas chiqarish esa ixtiyoriy va passiv tarzda amalga oshiriladi, mashqlar esa ritmik harakatlar bilan uyg'unlashtiriladi. Ushbu tizim sog'lomlashtiruvchi xususiyatga ega bo'lib, turli nafas va ovoz buzilishlarida, jumladan duduqlanishda ham ijobiy natijalar berishi mumkin. Biroq amaliyotda logopedlar tomonidan uning samaradorligi bir xil baholanmaydi, chunki nutqiy nafasdagi o'zgarishlar va maktabgacha yoshdagi bolalar uchun moslashtirilgan aniq metodik ko'rsatmalar yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shu sababli nutqiy nafasni rivojlantirish duduqlanishni korreksiya qilishning muhim tarkibiy qismi bo'lib qolayotgan bir vaqtda, ayniqsa A.N. Strelnikova metodikasini bolalarning yosh va psixologik xususiyatlariga moslashtirish zarurati ushbu yo'nalishni dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida belgilaydi.

Xulosa. Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalarda nutqiy nafasning rivojlanishi nutq faoliyatining shakllanishida muhim o'rin tutadi. Nutqiy nafas nafaqat fiziologik jarayon, balki fonatsiya, artikulyatsiya va bog'langan nutqning maromli kechishini ta'minlovchi murakkab funksional tizim hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, duduqlanishning nevroitik va nevrozsimon shakllarida nafas va nutq apparati faoliyati o'rtasidagi koordinatsiya buzilishi kuzatilib, bu holat nutq tempi, ritmi va ravonligining izdan chiqishiga olib keladi. Ayniqsa maktabgacha yosh davrida nutqiy nafasning yetarli darajada shakllanmaganligi qo'shimcha nafas olish, nafas tutilishi, gapni bir nafasda tugata olmaslik kabi kamchiliklarda namoyon bo'ladi. Ilmiy manbalar tahlili duduqlanishni korreksiya qilishda nutqiy nafasni rivojlantirishga qaratilgan logopedik mashqlar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Nafas, fonatsiya va artikulyatsiya koordinatsiyasini bosqichma-bosqich shakllantirish bolalarda nutqning ravonligi va kommunikativ faolligini oshirishga xizmat qiladi..

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Селиверстов В.И. Заикание у детей. — М.: Владос, 1997. — 304 с.
2. Выготский Л.С. Мышление и речь. — М.: Педагогика, 1982. — 287 с.
3. Власова Н.А., Рау Е.Ф. Методика логопедической работы при заикании у детей. — М.: Просвещение, 1983. — 192 с.
4. Левина Р.Е. Нарушения речи у детей. — М.: Просвещение, 1968. — 368 с.
5. Филимонова В.Т. Формирование речевого дыхания у детей с нарушениями речи. — М., 2000. — 156 с.